

TIKUVCHILIKKA OID TERMINLAR YASALISHINING SINTAKTIK USULI

Mustafaqulova Maftuna Ilhom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi

2-bosqich magistranti

Eshmurodova Dildora

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Fil.f.f.d., (Phd).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15531348>

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida tikuvchilikka oid terminlar shakllanishining sintaktik usuliga bag‘ishlanadi. Shuningdek, morfologik-sintaktik termin yasalishi nima, qo‘shma so‘z yoki kompozitsion shakldagi tikuvchilikka oid terminlar nechi komponentdan ya’ni tarkibdan iborat bo‘lishi kerakligi haqidagi ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sintaktik, kompozitsiya, qo‘shma so‘z, lug‘aviy shakl, terminologik birlik, komponent.

Morfologik-sintaktik termin yasalishi deganda lug‘aviy shakllarning sintaktik va morfologik o‘zgarishlarini o‘z ichiga oluvchi so‘z birikmalaridan bir so‘zli termin yasash usullari guruhi tushuniladi. Bu usullarga so‘z tarkibi va barcha turdag'i qisqartmalar kiradi.

Murakkab so‘zlarni so‘z o‘zaklarini birlashtirib yasash, ya’ni qo‘shish orqali (to‘liq shakllangan) murakkab so‘zlarni hosil qilish. Ikki yoki undan ortiq morfema qo‘shilishi natijasida murakkab termin hosil bo‘ladi. Murakkab so‘zlarga aylanish jarayoni rasmiy ravishda o‘rtasida chiziqcha bilan ifodalanadi, keyinchalik u bir butun so‘z sifatida mustahkamlanadi. Kombinatsiyalash ya’ni qo‘shish yo‘li bilan tuzilgan terminlarning o‘ziga xos xususiyatini I.V. Arnold ko‘rib chiqadi: grafik (birlashtirilgan yoki chiziqli imlo), fonetik, semantik, idiomatiklik deb ataladigan “qo‘shma so‘zning ma’nosi uning qismlari ma’nolari yig‘indisidan kelib chiqmasligi mumkin.”

So‘z tarkibining hozirda an‘anaviy termin yasalish usuli sifatida paydo bo‘lishining sabablari, bir tomonidan, fan-texnika taraqqiyotining tezlashishiga bog‘liq bo‘lgan inson bilimlarining murakkablashishi va chuqurlashishi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, yunon-lotin elementlaridan faol foydalanish edi. Shuni ta’kidlash kerakki, qo‘shish (yoki kompozitsiya) orqali hosil bo‘lgan atamalar asosan umumiyl tushunchalarini ifodalaydi va ko‘pincha ma’lum terminologiyaning tematik guruhlari nomlarini (*hearwear* - bosh kiyim, *footwear* - poyabzal; *sportswear* - sport kiyimlari) belgilash uchun ishlatiladi.

Qo‘shma so‘z shaklidagi yoki kompozitsion usul bilan tuzilgan terminlarning eng katta guruhi otlardir. Ushbu turdag'i terminlarni shakllantirish modellari ko‘p emas:

- N + N —> N: *tie-pin* - bo‘yinboq uchun ilmoq; *tailcoat* - frak, *armhole* - qo‘ltiq; *shoulder-strap* – tasma; *sweatshirt* – tolstovka;

- A + N —> N: *bridalwear* - to‘y liboslari, *active-wear* - dam olish va sport uchun kiyimlar, *high-boots* – poshnali etiklar, *menswear* - erkaklar kiyimlari.

Ushbu model bo‘yicha yasalgan terminlar, asosan, jamoaviy bo‘lib, kiyim-kechak buyumlarining butun sinfiga tegishli, ya’ni umumiyl tushunchalar hisoblanadi; - V + N = N: *knitwear* - trikotaj, *wearability* - kiyinish, *drawstring* - tortma.

Ikki komponentli terminologik birikmalar tikuvchilik terminlarining eng keng tarqalgan turi bo‘lib, ularning umumiyl soni 1640 terminologik birlikdir. Ushbu turdag'i terminlarni shakllantirish modellari orasida quyidagilar eng samarali deb topildi: N + N, A + N, Part. II + N, V ing + N.

B.N.Golovin terminologik birikmalarni ularning strukturasi bilan bog‘lagan holda ikki turga ajratadi: hokim so‘z va uni ifodalab kelgan bitta tobe so‘zdan iborat bo‘lgan sodda birikmalar, va hokim so‘zni ifodalab keluvchi ikki yoki undan ortiq tobe so‘zdan iborat bo‘lgan murakkab birikmalar.

Eng ko‘p uchraydigan birikmali terminlar bu ikki komponentdan iborat bo‘lgan birikmalardir. Ingliz va o‘zbek kiyim terminologiyasida birikmali terminlarning asosiy qismi ikki komponentli hisoblanadi. Ularning eng unumдор yasalish modeli quyidagicha: ot+ ot, sifat+ot, fe’l +ot. Ot+Ot:

Dance costume- raqs kostyumi;
Fashion icon- moda ikonasi;
Yoga clothing - yoga kiyimi.
Sifat+ Ot: National fabric - milliy mato;
Striped shirt - yo‘l-yo‘l ko‘ylak;
Skinny jeans- tor jinsi shim;
Floor-length dress - uzun ko‘ylak.
Fe’l+Ot: Cropped top- kalta kofta;
Hidden zip- yashirin zanjirsimon qadagich.

Terminologik birliklarning keyingi tiplari uch va undan ortiq komponentli birikmalarda asosiy hokim so‘z birikma oxirida kelib, uni aniqlovchi prepozitiv elementlari undan oldin keladi. Uch komponentli terminologik biriklar ikki komponentlidan keyin eng ko‘p uchraydigan birikmalar hisoblanadi. Shu tarzda, ya’ni uch komponentlidan to‘rt komponentli, to‘rt komponentlidan besh komponentliga qarab birikmali terminlar soni kamayib boradi. Uch komponentli birikpmali terminlar:

Sifat+Sifat+Ot: women’s wide-leg jeans - ayollar keng shimi, polka-dot ruffled dress-burmali xol-xol ko‘ylak; buttoned high-waist trousers- baland bellı tugmali shim;

Sifat+Ot+Ot: Denim Bermuda shorts- Jinsi Bermuda shortisi;

Ot+Ot+Ot: Butterfly sleeve blouse- Kapalak yengli bluz.

REFERENCES

1. Исломов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011 – Б. 7-8.
2. A.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova – “O’zbek Terminologiyasi”, Samarqand-2020.
3. A. Ulmasov. Bozor iqtisodiyoti. Qisqacha lug’at – ma’lumotnoma. Toshkent-1991.
4. Hamidulla Dadaboyev – “O’zbek Terminologiyasi”, Toshkent-2009.